



O'ZBEK SHE'RIYATIDA QIZG'ALDOQ ORAZIGA XOSLIKLAR

Salohiddinova Sevinch Sunnatillo qizi

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya : lola, nilufar, yalpiz, binafsha va boshqalar Lola eng nozik nav bo'lib, sabr va chidamlilik ramzi sifatida qadrlanadi. Xalq lirikasi va xalq og'zaki ijodida atirgul go'zallik, sabr-toqat, chidamlilik, uzoq muddatli muhabbat va baxt timsoli bilan bog'langan. Maqolada bu haqda so'z boradi.

Kalit so'zlar: obraz, folklor, lirik qahramon, badiy, xalq lirikasi, zamonaviy she'riyat, ramz, lolaqizg'aldoq obrazining xususiyatlari.

Annotation: tulip, lily of the valley, mint, violet, etc. The tulip is the most delicate variety and is valued as a symbol of patience and endurance. In folk lyrics and folklore, the rose is associated with a symbol of beauty, patience, endurance, long-term love and happiness. The article talks about this.

Key words: image, folklore, lyrical hero, art, folk lyrics, modern poetry, symbol, features of the image of Lapakisgaldo.

O'zbek she'riyatida gul obrazi ko'p bor qo'llangan. Lola, yalpiz, rayhon, binafsha singari gullar obrazi she'riyatimizda qayta-qayta qo'llanadi. Ko'p qo'llanadigan shunday gullardan biri lolaqizg'aldoqdir. Bu obraz peyzaj lirikasida kelishi bilan birga ramziy obraz sifatida ham gavdalanitiriladi.

Qizg'aldoq uzoq qizg'in muhabbat va baxt ramzi hisoblanadi. Buni achinarli afsonada ham ko'rishimiz mumkin: " Bir kuni Farhod ismli fors shahzodasi bir go'zal Shirin ismli qizni sevib qoladi. Bir kuni shahzodaga sevgilisi o'ldirilgani haqida yog'on xabar berishadi va u otiga yuguradi va butun imperiyadagi eng baland tog'ga chiqadi. Og'riqdan ko'r bo'lib, o'zini bo'shliqqa qo'yib yuboradi. Uning qoni lolalar tug'ilgan yerning hamma joyiga uchadi va bu sevgining belgisi, eslatmasi hisoblanadi. Shuning uchun ham qizg'aldoqni sevgi va ishtiyoq bilan bog'liq deyishimiz mumkin. Xususan, qizg'aldoq sabr, bardosh, go'zallik, quvnoqlik, ko'plab shoir va shoiralarga ilhom baxsh etuvchi obraz sifatida ham kelganini ko'rishimiz mumkin. Quydagi misralarga e'tibor qaratsak:

Mendan nima qolar:

Ikki misra she'r

Ikki sandiq kitob,

Bir uyum tuproq,

Odamlar ortimdan

Nima desa der,

Men seni o'ylayman

O'zimdan ko'proq –





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq!..³⁵ [3.261]

Bu ajoyib misralar Muhammad Yusuf qalamiga mansub bo'lib, Shavkat Rahmon xotirasiga bag'ishlangan she'rdir. Misralarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Mendan ikki misra she'r, balki, ikki sandiq kitob yoki bir uyum tuproq qoladi. Odamlar ortimdan nima deyishsa ham, seni o'zimdan ko'proq o'ylayman", - deya "lola" gulini misralarning oxirida keltirib o'tadi. Chunki lola – bardosh, sabr ramzi sifatida etirof etilgan. Bu she'r Shavkat Rahmon xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, Shavkat Rahmon olamdan ko'z yumgandan so'ng ayoliga murojaati tarzida tasvirlangan. Keyingi misralarga e'tibor qaratsak, buning dalilini yaqqol ko'rishimiz mumkin: Ya'ni ayol qalbi bilan farzandlarni katta qilishi, bu yo'lda har qanday qiyinchiliklarga bardosh berishi, boshiga g'am-tashvish tushsa, ulardan qo'rqmaslikka, sabr-bardoshga undaydi. Va Xudodan ayolining nomard, past kimsalarga ishi tushmasligini so'rab, ayolini nomard kimsalarning qo'lidan faqat fitna, tuzoq kelishini aytib, uni bundan ogohlatiradi.


Chorasiz qolgan vaqtlarda, imkonsiz chog'larda "inim Muhammadga bor", - deya Muhammad Yusufni o'z inisidek ko'rishi, uning eng ishongan insoni, do'sti Muhammad Yusuf ekanligini yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin. "Inson kamchiliksiz bo'lmaydi", - deganlaridek Muhammad Yusufning ham salbiy taraflarini keltirilib, "biroz ichishini hisobga olmasa, ko'ngli oq, halol, faqat sal sodda va yoshligi bor", - deya ehtiros qilib ketadi.

Jon so'nggi boshpana
Toparkan ongda,
U yurak ostida
Derdim men bo'lsam.
Ajablanma agar,
Ertaga tongda
Seni o'pib, O'shni
Quchoqlab o'lsam!..
O'tinchim – tepamda
Yig'lama uzoq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq!..



Inson ruhi eng so'nggi manzilini toparkan, jonni so'nggi boshpanasi insoning yuragi ostida deb o'yladim. Alloh insonni xohlagan paytda, xohlagan joyida jonini olishi mumkin. Inson ertangi kuni qanday bo'lishini hech qachon oldindan bila olmaydi. Yuqorida keltirilgan misralarda ham aynan shu ma'no bor. "Agarda erta tongda seni o'pib, O'shni quchoqlab o'lsam!.." Ya'ni O'sh – Qirg'iziston janubida joylashgan, poytaxt Bishkekdan keyin "janubiy poytaxt" maqomiga ega yirik shahar, viloyat markazi hisoblanadi. O'sh shahri 3000 yillik tarixga ega. O'sh shahri chiroyli va juda tarixi buyuk

³⁵ Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2019. – B.261.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shahardir. Bu yerda shoir O'sh fojeasiga ishora qilgan. Eng oxirida esa o'tinchini bayon etadi: "Men o'lganimdan so'ng tepamda uzoq yig'lma" tarzida. Bundan "lola" obrazi bardosh, sabr, toqat, kuchli iroda, go'zallik ramzlari sifatida qiyoslanib, Shavkat Rahmon ayoliga o'xshatilayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Yulduz Karimovaning quydagi "Qizg'aldoq" nomli she'rida qizg'aldoq gulining go'zalligi, chiroyi, serviqor tog'lar-u qirlar boshida erkanlab, sokin tebranishi haqida gapirib, "mungli ko'zim yoshida", - deb o'zining xafaligi, qizg'aldoqdan ilhom olish maqsadida go'zal qizg'aldoqqa murojaati bayon etilgan. Ya'ni bunda, qattiq shamolda ham, qahraton sovuqda ham qovjuragan bo'lishiga qaramay, bardosh, toqat qilayotganligiga havas qilishini ko'rishimiz mumkin. Bu fikrni quydagi misralarda yaqqol guvohi bo'lamiz.

Sen bardosh ramzisan, sendadir toqat,
Beshafqat olamda eng nozik hilqat,
Shoshma, qo'lginangdan olayin dasxat,
Shamollarda dovdiragan qizg'aldoq,
Qahratonda qivjiragan qizg'aldoq.[4.46]

Shoira Yulduz Karimova qizg'aldoqni bardosh ramzi sifatida baholab, uning beshfqat olamda eng nozik xilqatligiga qaramay, barcha sinovlarga toqat qilayotganini aytib, uning bardoshiga xavas qilganini, yonib, yayrab yashashni qizg'aldoqdan o'rganganligini aytib o'tadi. "Shoshma qo'lginangdan olayin dasxat", - deya qizg'aldoqni ulug'laydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musaqllov A. O'zbek xalq lirikasi – Toshkent: "Fan", 2010 – 308 b.
2. Yuqubjon Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi – Toshkent: "Zarqalam", 2006- 119b
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2019. – B.261.
4. Onam ko'zlaridan boshlanar bahor. – Toshkent: "Ijod- Press", 2018-46 b.

